

O'ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING INSTITUTSIONAL VA IQTISODIY MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

ALLAYOROV OYBEK XOLMUROD O'G'LI

Mustaqil tadqiqotchi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21834251>

ANNOTATSIYA

Tezisdagi O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning institutsional va iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish masalalari yoritiladi. Raqamli iqtisodiyot davlat boshqaruvi, biznes, moliya, ta'lim, bandlik, hududiy taraqqiyot va fuqarolarning turmush sifati bilan bog'liq murakkab ijtimoiy-iqtisodiy tizim sifatida qaraladi. Uning samaradorligi raqamli infratuzilma, huquqiy institutlar, elektron xizmatlar, investitsion rag'batlar, raqamli savodxonlik va kiberxavfsizlikning o'zaro uyg'unligiga bog'liq. Tezisdagi institutsional va iqtisodiy mexanizmlarni yagona ekotizim sifatida muvofiqlashtirish zarurligi asoslanadi.

Kalit so'zlar: raqamli iqtisodiyot, institutsional mexanizm, iqtisodiy mexanizm, raqamli transformatsiya, elektron hukumat, raqamli infratuzilma, platformali iqtisodiyot, innovatsion rivojlanish, kiberxavfsizlik, raqamli savodxonlik.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotida raqamlashtirish ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, moliya, ta'lim, sog'liqni saqlash va davlat boshqaruvi tizimlarini tubdan o'zgartirmoqda. Ma'lumotlar, algoritmlar, elektron platformalar, bulutli texnologiyalar va sun'iy intellekt yechimlari qiymat yaratishning yangi shakllarini yuzaga keltirmoqda. Bunday sharoitda iqtisodiy o'sish faqat kapital va mehnat resurslari bilan emas, balki raqamli infratuzilma sifati, tezkor axborot almashinuvi, innovatsion ekotizim va institutsional moslashuvchanlik bilan belgilanadi.

O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish davlat siyosatining strategik ustuvor yo'nalishiga aylangan. Prezidentning 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son Farmoni bilan "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasi tasdiqlandi. Unda elektron hukumat, raqamli industriya, raqamli ta'lim va infratuzilmani rivojlantirish vazifalari belgilandi. Prezidentning 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston — 2030" strategiyasida iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, davlat xizmatlarini raqamlashtirish va inson kapitalini rivojlantirish yo'nalishlari davom ettirildi. 2023-yil 24-maydagi PF-76-son Farmoni hamda PQ-162-son qarori raqamli texnologiyalar sohasida davlat boshqaruvi va hududiy transformatsiya vazifalarini kuchaytirdi.

Tezisning metodologik asosini institutsional iqtisodiyot, innovatsion rivojlanish nazariyasi, ekotizimli yondashuv, raqamli platformalar konsepsiyasi, tranzaksiya xarajatlari nazariyasi va tizimli tahlil tamoyillari tashkil etadi. Institutsional iqtisodiyot raqamli transformatsiyani faqat texnik modernizatsiya emas, balki qoidalar, me'yorlar, tashkilotlar va boshqaruv madaniyatining o'zgarishi sifatida baholashga imkon beradi. Raqamli bozorlar ishonch, shaffoflik, ma'lumotlar himoyasi, elektron identifikatsiya va huquqiy aniqlikka tayangan holda ishlaydi.

Jahon ilmiy adabiyotida Y. Shumpeter innovatsiyani iqtisodiy taraqqiyotning ichki drayveri, D. Nort institutlarni iqtisodiy faoliyatdagi noaniqlikni kamaytiruvchi omil sifatida izohlagan. M. Kastels axborot oqimlari va tarmoqlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdagi o'rnini yoritgan. D. Tapscott, E. Brynjolfsson, A. McAfee, K. Shvab, R. Bukht va R. Heeks raqamli texnologiyalarning mehnat bozori, platformali iqtisodiyot va davlat boshqaruviga ta'sirini

asoslagan. MDH tadqiqotchilari A.V. Babkin, V.P. Kupriyanovskiy, L.V. Lapidus raqamli infratuzilma, elektron hukumat va platformali biznes masalalarini o'rgangan. O'zbekiston olimlari S.S. G'ulomov, B.A. Begalov, R.H. Ayupov, B.Yu. Xodiyev va Sh.Sh. Shodmonov axborotlashgan jamiyat, elektron biznes, innovatsion iqtisodiyot va raqamli boshqaruv bo'yicha muhim ilmiy qarashlarni ilgari surgan.

Tahlillar O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish mexanizmlari shakllanayotganini, biroq ularni yagona ekotizim sifatida yanada muvofiqlashtirish zarurligini ko'rsatadi. Mamlakatda elektron hukumat, IT Park, raqamli xizmatlar, elektron to'lovlar va platformali xizmatlar bo'yicha sezilarli o'zgarishlar yuz bermoqda. Barqaror natija uchun raqamli infratuzilma investitsion rag'batlar bilan, elektron xizmatlar huquqiy aniqlik bilan, innovatsion tadbirkorlik kadrlar tayyorlash tizimi bilan, ma'lumotlar almashinuvi esa kiberxavfsizlik bilan uyg'unlashishi zarur.

Birinchi natija institutsional muvofiqlashtirishni kuchaytirish zarurati bilan bog'liq. Raqamli iqtisodiyot ko'plab vazirliklar, idoralar, biznes subyektlari, ta'lim muassasalari va mahalliy hokimiyatlar faoliyatini qamrab oladi. Har bir tashkilot axborot tizimini alohida rivojlantirsa, ma'lumotlar takrorlanishi, integratsiya muammolari va foydalanuvchi uchun ortiqcha byurokratiya yuzaga keladi. Shu bois idoralararo ma'lumot almashinuvi standartlari, yagona identifikatsiya, ochiq API, ma'lumotlar sifati auditi va raqamli loyihalar ekspertizasini kuchaytirish lozim.

Ikkinchi natija iqtisodiy rag'batlar tizimini tarmoq va hududlar xususiyatiga moslashtirish bilan izohlanadi. Raqamli iqtisodiyot sanoat, qishloq xo'jaligi, savdo, transport, bank-moliya, ta'lim va sog'liqni saqlashda bir xil tezlikda rivojlanmaydi. Kichik biznes uchun bulutli xizmatlardan foydalanish xarajatlarini qisqartirish, IT-kompaniyalar uchun moliyaviy va maslahat xizmatlarini kengaytirish, qishloq joylarida raqamli infratuzilmaga investitsiya kiritgan operatorlarni rag'batlantirish muhimdir.

Uchinchi natija inson kapitali, kiberxavfsizlik va monitoring tizimlarini iqtisodiy mexanizmlar bilan bog'lash zarurligini ko'rsatadi. Texnologiya mavjudligi yetarli emas; undan samarali foydalanadigan kadrlar, tadbirkorlar va foydalanuvchilar zarur. Dasturlash, ma'lumotlar tahlili, elektron tijorat, raqamli marketing, sun'iy intellekt va loyiha boshqaruvi ko'nikmalari mehnat bozorining asosiy talablariga aylanmoqda. Kiberxavfsizlik esa raqamli xizmatlarga ishonchni, elektron moliya barqarorligini va investitsion jozibadorlikni ta'minlovchi muhim iqtisodiy omildir.

XULOSA

O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning institutsional va iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish zamonaviy iqtisodiy siyosatning muhim ilmiy-amaliy vazifasidir. Raqamli transformatsiya endilikda alohida texnologik loyiha emas, balki davlat boshqaruvi, biznes, moliya, ta'lim, bandlik, hududiy rivojlanish va fuqarolik jamiyati bilan bog'langan keng qamrovli taraqqiyot omili sifatida namoyon bo'lmoqda. Qabul qilingan strategiya va qarorlar huquqiy asosni yaratgan bo'lsa, ularni real iqtisodiy natijaga aylantirish uchun institutsional aniqlik, iqtisodiy rag'bat, kiberxavfsizlik, inson kapitali va monitoring tizimlari uyg'un ishlashi kerak.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, raqamli iqtisodiyotning institutsional mexanizmlari ishonchli qoidalar va muvofiqlashtirilgan boshqaruvni ta'minlasa, iqtisodiy mexanizmlari

bozor ishtirokchilarining innovatsion faolligini kuchaytiradi. Ularning uyg'unligi O'zbekistonda raqobatbardosh, ochiq, xavfsiz va inklyuziv raqamli iqtisodiyotni shakllantirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son Farmoni. "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoni. "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 24-maydagi PF-76-son Farmoni. Raqamli texnologiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 24-maydagi PQ-162-son qarori. Raqamli xizmatlar qamrovi va sifatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida.
6. North D.C. Institutions, Institutional Change and Economic Performance. – Cambridge: Cambridge University Press, 1990.
7. Schumpeter J.A. The Theory of Economic Development. – Cambridge: Harvard University Press, 1934.
8. Brynjolfsson E., McAfee A. The Second Machine Age. – New York: W.W. Norton, 2014.
9. G'ulomov S.S. Axborot tizimlari va texnologiyalari. – Toshkent: Sharq, 2000.
10. Ayupov R.H., Boltaboyeva G.R. Raqamli iqtisodiyot asoslari. – Toshkent, 2020.